

MEHNAT BOZORI SHARHI

QISQA TAVSIF

2026-YIL I CHORAK


Asosiy xulosalar

2026-yil I choragida mehnat bozori faolligi yuqori darajada saqlanib qoldi. Mart oyida vakansiyalar soni 9,8% ga oshib, ishchi kuchiga talab ayniqsa xizmatlar, savdo, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida yuqori shakllandi. Shu bilan birga, real ish haqi va pul o'tkazmalari o'sishda davom etdi.

Mehnat resurslari

I chorakda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab yuqori bo'lib qoldi. Mart oyida vakansiyalar soni sezilarli tiklandi. Faol rezyumelar sonining 31,5% ga oshishi esa mehnat bozorida raqobat kuchayganini ko'rsatdi. Bandlikning asosiy o'sishi xususiy sektor hisobiga shakllandi, ishsizlik darajasi esa 4,8% gacha pasaydi.

Sektorlar kesimida bandlar soni o'zgarishi, foizda²




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Ish haqi dinamikasi

2026-yil I choragida nominal ish haqi 17,4% ga, real ish haqi esa 9,5% ga oshdi. Ish haqi o'sishi moliyaviy xizmatlar, transport va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida yuqori bo'ldi. Shuningdek, real ish haqlarining yuqori o'sishi ichki iste'molni qo'llab-quvvatlashda davom etdi.

Nominal va real ish haqi o'sish sur'atlari, foizda




Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Pul o'tkazmalari dinamikasi va mehnat muhojirlari oqimi


I chorakda pul o'tkazmalari hajmi 3,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13% ga oshdi. Migratsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish davom etdi — Turkiya va Janubiy Koreyada O'zbekiston fuqarolari soni oshdi. Rossiya asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, ushbu davlatdan yuborilgan pul o'tkazmalarining ulushi biroz qisqardi.

Rossiyada patent asosida ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari soni, ming kishi



Manba: Rossiya davlat statistikasi federal xizmati

Turkiyada ruxsatnoma asosida bo'lgan O'zbekiston fuqarolari soni, ming kishi



Manba: Turkiya migratsiyani boshqarish Prezidentligi